



# TSUOS TOURISM E-JURNAL



## Sharqshunoslar BOYSUNDA



BIBOYSUN



## #Boysun\_bahori

2023-yil 29-mart kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida mamlakatimizda turizm salohiyatini oshirish masalalari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti amaliy ishlarni Rishton, Yangiqo'rg'on, Chust va Boysun tumanlarida boshlagan edi.

Joriy yilning 1-7-may kunlari Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida "Boysun bahori" xalqaro festivali o'tkazildi. Ushbu festivalda universitetimiz rektori **G. Rixsiyeva** boshchiligidagi universitetimiz delegatsiyasi hamda talabaldan tashkil topgan turizm ilmiy-amaliyot jamoasi ishtirok etdi.



USHBU JURNALDA "BOYSUN BAHORI" FESTIVALI HAMDA BOYSUN TUMANINING TURISTIK OB'YEKTLARI YORITILDI.



# "BOYSUN

## BAHORI"



#Sharqshunoslar  
"Boysun bahori"da



Joriy yilning 1-may sanasida Termiz davlat universitetida "Boysun bahori" xalqaro folklor festivaliga bag'ishlangan "Surxon vohasining insoniyat sivilizatsiyasidagi o'rni: moddiy va nomoddiy madaniyat asoslari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bo'lib o'tdi. Konferensiyada Fransiya, Chexiya, Yangi Zelandiya, Buyuk Britaniya, Xitoy, Tojikiston, Ozarbayjon kabi davlatlardan olimlar va Respublikamizning turli hududlaridan tashrif buyurgan ilm-fan namoyandalari o'z ma'ruzalari bilan chiqish qilishdi. Mazkur anjumanda TDSHU rektori professor Gulchehra Rixsiyeva rahbarligidagi universitetimiz vakillari ham ishtirok etishdi.



# "BOYSUN

## BAHORI"



#Boysunga bahor keldi



Surxondaryo viloyati Boysun tumanining Bibishirin mahal-lasida joylashgan kompleksida **"Boysun bahori"** xalqaro folklor festivali boshlandi.

Ushbu festivalda ishtirok etish uchun Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti delegatsiyasi Boysun tumaniga yetib kelishdi.

01.05.24  
Chorshanba



Surxondaryo viloyati, Boysun tumanining Bibishirin mahallasida joylashgan turizm kompleksida **"Boysun bahori"** xalqaro folklor festivali bo'lib o'tdi. 2002- yilda asos solingan "Boysun bahori" festivali 2017-yil qayta tiklandi va xalqaro festival bundan buyon UNESCO shafeligi ostida har 2 yilda bir marta o'tkazilishi belgilandi.

Joriy yil yettinchi marta tashkil etilayotgan **"Boysun bahori"** xalqaro folklor festivali yangicha uslubda o'tkazildi. Shu maqsadda so'lim tog'lar qo'ynidagi Bibishirin mahallasida zamonaviy turistik maskan barpo etilgan. Bu yerda besh qavatli, besh yulduzli muhtasham mehmonxona, yirik sahna, amfiteatr, viloyatlar qo'rg'onlari uchun joy, etnosport maydon-chalari va boshqa infratuzilma inshootlari qad rostladi. O'tovlar o'rnatilib, Termiz shahri, tumanlar va viloyat tashkilot, muassasa-larining qo'rg'onlari tashkil etildi. Festivalda 40 dan ortiq yaqin davlatlardan ishtirokchilar tashrif buyurishdi. Yuzdan ziyod folklor san'ati ustalari, folklorshunoslari, nomoddiy madaniy meros shinavandalari va sayyohlar qatnashdi.




Festival doirasida xalqaro ilmiy-ama-  
liy konferensiya, taniqli san'atkorlar ham-  
da folklor jamoalar ishtirokida festivalning  
ochilish marosimi, milliy sozlar va liboslar,  
taomlar, hunarmandchilik buyumlari,  
tasviriy va amaliy san'at asarlari ko'r-  
gazmalari, dron-shoular, etnosport  
bellashuvlari, shuningdek, uloq-ko'pkari,  
kurash, tosh ko'tarish, arqon tortish, xo'roz  
urishtirish, varrak sayli kabi turli xalq  
o'yinlari ham tashkil etildi.

Mehmonlar mato, gilam to'qish, kash-  
tachilik, do'ppido'zlik, chanqovuz, do'mbi-  
ra, sibizg'a, g'ajirnay yasash kabi Boysun-  
ning xalq amaliy san'atidan bevosita  
bahramand bo'lishdi. Xalqaro festival  
bo'lib o'tadigan yashil adirlikda yuzdan  
ortiq o'tov o'rnatilib, milliy urf-odat va  
qadriyatlar namoyish qilindi.

Festivalning xalqaro ko'rik-tanlovi folk-  
lor hamda milliy xalq o'yinlari va tomosha  
san'ati yo'nalishlarida tashkil etildi. Nufuzli  
tanlovda faxli birinchi o'rinni egallagan  
jamoa 3 ming 500, ikkinchi o'rinni sohiblari 2  
ming 500 va uchinchi o'rinni qo'lga kirit-  
gan folklor hamda milliy xalq o'yinlari va  
tomosha san'ati ustalari 1 ming 500 dollar  
miqdoridagi pul mukofoti va esdalik  
sovg'alar bilan taqdirlandi. Sovrindorlarga,  
shuningdek, maxsus diplom, sertifikat va  
xalqaro festival statuetkasi topshirildi.





Bu noyob va nafis san'at bayrami ishtirokchilari va mehmonlarida uzoq o'tmishdan so'zlaydigan arxeologik yodgorliklar – paleolit davriga oid insoniyat beshigi sanalmish Teshiktosh, Amir Temur g'orlari, 65 million yillik dinozavrilar izlari, o'z zamonida muhim istehkom, strategik inshoot vazifasini bajargan Uzundara, Qo'rg'onzal, Tumanqo'rg'on singari arxeologik yodgorliklariga sayohatlar uyushtirib, dunyo tamadduni haqidagi bilimlarni boyitish imkonи bor.

Shuningdek, tashrif buyuruvchilar bir asrlik tarixga ega Sayrob chinorlari, "Omonxona", "Xo'jamayxona" shifobaxsh suvlari, sirli baliqlari, Tangisar qizil kanonlari, sayyoramizdagи eng chuqr g'orlardan biri – Boysuntog' tizmasida joylashgan 2 651 metr uzunlikdagи "Qora yulduz" g'orini bevosita ko'rish imkoniga ega bo'ldi.

Surxon vohasining osmono'par tog'lar qo'ynidagi so'lim Boysun tumanini YUNESKO 1999-yil "Jahon xalq ijodiyoti durdonasi", deb e'lon qilgan.

# "BOYSUN BAHORI"



#Sharqshunoslar  
"Boysun bahori"da

2002-yilda asos solingan "Boysun bahori" festivali Prezident Shavkat Mirziyoev tashabbusi bilan 2017-yil qayta tiklandi va xalqaro festival' bundan buyon UNESCO shafeligi ostida **har ikki yilda bir marta** o'tkazilishi belgilandi.



# "BOYSUN

## BAHORI"



#Sharqshunoslar  
"Boysun bahori"da

Bu yil yettinchi marta tashkil etilgan "Boysun bahori" xalqaro folklor festivali tamomila yangi shukuh va yangicha uslubda, yuksak badiiy saviyada o'tkazildi. Shu maqsadda so'lim tog'lar qo'ynidagi Bibishirin mahallasida zamonaviy turistik maskan barpo etilgan. Bu yerda besh qavatli, to'rt yulduzli muhtasham mehmonxona, yirik sahma, amfiteatr, viloyatlar qo'rg'onlari uchun joy, etnosport maydonchalari va boshqa infratuzilma inshootlari qad rostladi. O'tovlar o'rnatilib, Termiz shahri, tumanlar va viloyat tashkilot, muassasalarining qo'rg'onlari tashkil etildi.



# "BOYSUN

## BAHORI"



#milliylik

Bo'lib o'tgan festival ko'rik-tanlovida **20 ga yaqin** davlatdan sayyohlar ishtirok etishdi. Yuzdan ziyod folklor san'ati ustalari, folklorshunoslari, nomoddiy mada-niy meros shinavandalari va sayyohlar tashrif buyurishdi.



# "BOYSUN

## BAHORI"



#Boysunga bahor keldi

Festival doirasida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya, taniqli san'atkorlar hamda folklor jamoalar ishtirokida festivalning ochilish marosimi, milliy sozlar va liboslar, taomlar, hunarmandchilik buyumlari, tasviriy va amaliy san'at asarlari ko'rgazmalari, dronshoular, etnosport bellashuvlari, shunigdek, uloq-ko'pkari, kurash, tosh ko'tarish, arxon tortish, xo'roz urishtirish, varrak sayli kabi turli xalq o'yinlari ham tashkil etildi.



# "BOYSUN

## BAHORI"



#Boysunga bahor keldi



Mehmonlar mato, gilam to'qish, kashtachilik, do'ppido'zlik, chanqovuz, do'mbira, sibizg'a, g'ajirnay yasash kabi Boysunning xalq amaliy san'atidan bevosita bahramand bo'lishdi. Xalqaro festival bo'lib o'tadigan yashil adirlikda yuzdan ortiq o'tov o'rnatilib, milliy urf-odat va qadriyatlar namoyish qilindi.



# "BOYSUN

## BAHORI"



#Boysunga bahor keldi

Bu noyob va nafis san'at bayrami ishtirokchilari va mehmonlarida uzoq o'tmishdan so'zlaydigan arxeologik yodgorliklar – paleolit davriga oid insoniyat beshigi sanalmish Teshiktosh, Amir Temur g'orlari, 65 million yillik dinozavrlar izlari, o'z zamonida muhim istehkom, strategik inshoot vazifasini bajargan Uzundara, Qo'rg'onzal, Tumanqo'rg'on singari arxeologik yodgorliklariga sayohatlar uyuştirib, dunyo tamadduni haqidagi bilimlarni boyitish imkoniga ega bo'lishdi.



# "BOYSUN

## ВАНОРИ"




**Востоковеды в  
"Boysun bahori"**

В южной части Узбекистана на территории Сурхандарьинской области разместилось удивительное место с чарующей красотой и красочными пейзажами – величественный Байсун. На его просторах растянулись речные долины, удивительные равнины и поразительные скалы. Всего два часа езды от Термеза в сторону гор Байсунтога и попадаешь в совершенно иной мир, где многовековой уклад жизни и отношения между людьми сохранились почти в первозданном состоянии.

Фольклорные традиции народов Байсона поистине уникальны. Народные песни, танцы, предания, костюмы, изделия прикладного искусства, обряды и обычаи здесь составляют естественный образ жизни населения. Люди, природа и космос слились воедино, создав прекрасную гармонию бытия. Именно по этой причине на древней земле Байсона в каждые 2 года проводится Открытый Фольклорный Фестиваль "Байсунская весна". В этом году, нам, студентам Ташкентского Государственного университета Востоковедения удалось увидеть всю красоту фестиваля своими глазами. На него съехались народные исполнители со всего Узбекистана, Таджикистана, Киргизии. Зрители увидели и услышали обрядовые песни и танцы, прикоснулись к завораживающему мастерству сказителей-акынов – хранителей легенд и преданий.

В фестивале участвовали гости из Японии, Южной Кореи, Франции, Турции, Великобритании. Они получили уникальную возможность увидеть в Сурханском оазисе бережное и уважительное отношение к культурному и духовному богатству узбекского народа.

**Нажмиiddинова Нигина**  
**Участница научной практики по туризму**



# "BOYSUN

## BAHORI"



#Orientalists in the  
"Boysun bahori" festival



The Boysun Bahori Festival is a celebration of this unique culture. In the era of globalization, these traditions are being lost, and can only be found in small villages far from large cities. The goal of this festival is to gather and preserve these traditions, not only in Boysun, not only in Uzbekistan, but around the world.

In 2001, UNESCO named the culture of Boysun a Masterpiece of Oral and Intangible Cultural Heritage, and in 2002, the first Boysun Bahori Festival was held. Originally, the festival was held every year, but then it fell off. In 2017, the tradition was renewed.

This colorful program promises a rich tapestry of cultural delights. The festival aims to promote tourism by featuring captivating performances by folklore ethnographic teams, exhilarating national sports games, a myriad of diverse shows, and mesmerizing concert programs representing numerous countries. Over 200 representatives from folklore groups across Uzbekistan will also participate in this event, adorned in traditional costumes and echoing the melodies of the past.

Leaders of state and non-governmental organizations, activists, representatives of the general public, delegations of 19 countries and 2 international organizations, folklore groups, and reporters of 11 foreign and more than fifty local mass media and Internet publications took part in the event.

The concert program includes people's artists of Uzbekistan Farrukh Zakirov, Mardon Mavlonov, Mahmud Namozov, Og'abek Sobirov, artists who have served in Uzbekistan Hosila Rahimova, Sayyora Qaziyeva, Alisher Fayz, people's gifts, Karakalpakstan Folkloric teams from the republic, regions and the city of Tashkent presented their performances.

Performances of national songs, thermals, lapar and folklore ensembles, theatrical performances made a great impression on the participants of the event, including foreign guests. There are many students of Tashkent state university of oriental studies participate in and make contents in this festival. We're also observing every ceremonies and traditional events organized by every regions of Surkhandarya.

**Khabibullayeva Sadoqat**  
Participant of Tourism Scientific Practice

# "BOYSUN

## BAHORI"



#Sharqshunoslar  
"Boysun bahori"da



"Boysun bahori" festivalining dastlabki kuni...

Joriy yilning 2-may sanasida Surxondaryo viloyati Boysun tumanining Bibishirin mahallasida joylashgan turizm kompleksida "Boysun bahori" xalqaro folklor festivali rasmiy ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Ochilish marosimida viloyat hokimi **Ulug'bek Qosimov**, bir qator mutasaddi rahbarlar, shuningdek, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori **Gulchexra Rixsiyeva** ham universitet delegatsiyasi bilan ishtirok etdi. Xalqaro miqyosdagi tadbir yuqori saviyada va ko'tarinki ruhda boshlanib, bo'lib o'tgan konsertda elimiz suygan san'atkorlar o'zlarining kuy va qo'shiqlari bilan tomoshabinlar ko'nglini xushnud etdi.



# "BOYSUN

## BAHORI"



#Sharqshunoslar  
"Boysun bahori"da




# "BOYSUN

## BAHORI"



#Sharqshunoslar  
"Boysun bahori"da

Kurash xalqimizning qadimiyligi milliy sport turlaridan biridir. So'nggi yillarda ushbu milliy sport turini yanada rivojlantirish va keng ommalashtirish, bu boradagi xalqimizning qadimiyligi an'analarini targ'ib etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Boysun bahori" xalqaro folklor festivali doirasida o'tkazilgan kurash musobaqasining maqsadi ham ayni shu jihatlarga qaratilgan edi.



# "BOYSUN

## BAHORI"



#fotolavhalar



# "BOYSUN

## BAHORI"



**"Boysun bahori"**  
taqdirlash marosimi



Folklor jamoalarini taqdirlash marosimi va galakonsert dasturi bo'lib o'tdi.

"Boysun bahori" festivalining folklor san'ati yo'nalishi bo'yicha g'oliblari tantanali taqdirlash marosimi o'tkazildi.

Quyida g'oliblar bilan tanishing:

- 1-o'rinn - "Boysun" folklor-etnografik jamoasi /Surxondaryo viloyati/
- 2-o'rinn - "Jondor" folklor-etnografik jamoasi /Buxoro viloyati/
- 3-o'rinn - "Chavqi" folklor etnografik jamoasi /Samarqand viloyati/
- 4-o'rinn - "Xorazm" folklor-etnografik jamoasi /Xorazm viloyati/
- 5-o'rinn - "Qozog'iston" jamoasi /Qozog'iston/
- 6-o'rinn - "Yapon marvarid" jamoasi /Yaponiya/

Nominatsiyalar bo'yicha:

- Folklor namunalarining eng yaxshi talqini uchun - **"Yalama-yorim" folklor-etnografik jamoasi** /Namangan viloyati/
- Turli xalqlar folklor namunalarini mujassamlashtirgan jamoa uchun - **Belgium Eugenie Dagmar Nde Mey** /Belgiya/
- An'anaviy musiqanining milliy cholg'ulardagi eng yaxshi talqini uchun - **Great Britain The Cider House Rebellion** /Buyuk Britaniya/
- Milliy folklor qo'shiqlarining eng yaxshi sahnaviy talqini uchun - **"Qirg'iziston" jamoasi** /Qirg'iziston/
- Milliy an'analarning targ'iboti uchun - **"Yor-yor" folklor-etnografik xalq ansamblı** /Navoiy viloyati/



# "BOYSUN BAHORI"



#fotolavhalar



# "BOYSUN BAHORI"



#fotolavhalar



# "BOYSUN BAHORI"



#Sharqshunoslar  
"Boysun bahori"da



# "BOYSUN

## BAHORI"



#Sharqshunoslar  
"Boysun bahori"da



# "BOYSUN BAHORI"



#Sharqshunoslar  
"Boysun bahori"da



# "BOYSUN BAHORI"



#Sharqshunoslar  
"Boysun bahori"da



# SHARQSHUNOSLAR BOYSUN MAKTABLARIDA!

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti jamoasi universitetga biriktirilgan Boysun tumanidagi 2-sonli ingiliz tili faniga ixtisoslashgan davlat umumiy o'rta ta'lif muktabiga tashrif buyurishdi.

Tashrif davomida o'quvchilarnig bilim olishlari uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishildi hamda o'quvchilar bilan suhbat o'tkazildi.

Suhbat davomida mazkur muktab ingiliz tili faniga ixtisoslashtirilgani uchun bugungi kunda xorijiy tillarni bilish qanchalik muhimligi, xorijiy tillarni mukammal o'rganish uchun esa tillarga ixtisoslashtirilgan oliy ta'lif muassasalarida ta'lif olishning ahamiyati to'g'risida fikr yuritildi.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Sharq mamlakat-lari iqtisodiyoti siyosati va turizm fakulteti dekani **Chori Xusanov** universitetning barcha ta'lif yo'na-lishlari jumladan, filologiya va tillarni o'qitish (sharq tillari) ta'lif yo'na-lishi bo'yicha ma'lumotlar berdi.

Universitet Yoshlar yetakchisi **Komiljon Suyarov** bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarning xorijiy tillarni o'rganishlari uchun barcha shart-sharoitlar mavjudligi jumladan, "Ibrat Academy" mobil ilovasi orqali bepul tarzda sharq va g'arb tillarini mukammal o'rganishlari mumkinligi to'g'risida so'z yuritdi.

"Ibrat Farzandlari" loyihasining sharq tillari bo'yicha faoliyat yuritayotgan ustozlarining ko'pchiligi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ustozlari ekanligini faxr bilan tilga oldi.

Universitetning Prezident stipendi-yasi sohibasi **Sadoqat Habibullayeva** esa o'zining erishgan yutuqlari bo'yicha tajribasini bitiruvchi sinf o'quvchilari bilan bo'lishdi. Hozirgi kunda faqatgina ingliz tilini o'rganish bilan cheklanib qolmasdan sharq tillarini ham o'rganish lozimligini ta'kidladi.

SURXONDARYO VILOYATI BOYSUN TUMANIDAGI 2-SONLI  
INGLIZ TILI FANIGA IXTISOSLASHTIRILGAN DAVLAT UMUMIY ORTA  
TALIM MAKTABI



SURKHANDARYA REGION BOYSUN DISTRICT SPECIALIZING  
STATE SECONDARY SCHOOL IN ENGLISH LANGUAGE  
NUMBER -2



# "BOYSUN BAHORI"



#Sharqshunoslar  
Boysun maktabalarida



# "BOYSUN BAHORI"



#Sharqshunoslar  
Boysun maktabalarida



# SHARQSHUNOSLAR “XO’JAMAYXONA” ZIYORATGOHIDA!

Xo’jamayxona katta darada joylashgan bo’lib, suvi Machaydaryoga borib quyiladi. Xo’jamayxonani birinchi bor ko’rgan kishi beixtiyor chuqur xayolga botadi. Asrlar osha ana shu suvning bir maromda oqishi kishini ajablantiradi. Xo’jamayxonani minglab qariyalar, sarkardalar, din peshvolari, shayx va hojilar kelib, ziyorat qilib ketgan.

Tarixiy manbalarda yozilishicha, Sohibqiron Amir Temur ham ushbu ziyoratgohga kelib, ziyorat qilgan. Xo’jamayxonada Boysundan borishda chap tomonda Xazrati Badovuddin Balogardon chillaga o’tirgan joylari, o’ng tomonida esa Xazrati Mil Kulol chillada o’tirgan joylari belgisi bor. Xo’jamayxona mozorining atrofi qalin daraxtlar bilan o’ralgan. Suv zovning tubidan chiqib, aylanib 3 ta tog’ zinasi oqali daryoga qo’shiladi. Tabiiy paydo bo’lgan bu 40 metrli zinalar xuddi maxsus yasalgan zinalarga o’xshaydi.

Lekin, ming afsuski, hozirgi vaqtida bu zinalar qattiq, shikastlangan. Yaponiyalik olimlarning yozishicha, Xo’jamayxona suvi Osiyo qitasidagi eng toza, filtrlangan, shifobaxsh suv bo’lib, inson a’zosiga foydali bo’lgan temir va oltin moddalari mavjud ekan. Xo’jamayxona deb nomlangan bu manzil o’z tabiiy manzarasi, xush havosi, suvning tiniq, totli va shifobaxshligi bilan kishini hayratga soladi.



Keksalarning aytishicha, Xo’jamayxona suvi bilan Machaydaryo suvi o’tasida bog’liqlik bor ekan. Negaki, Machaydaryo suvi toshsa, Xo’jamayxona suvi ham toshar, kamaysa, kamayar ekan. Irkutsklik g’orshunoslar bu yerda ancha fursat turib, Xo’jamayxonaning ajib jumboqlari haqida bosh qotirdilar. G’avvos kiyimlarini kiyib, Xo’jamayxona yonida joylashgan va o’sha yerdan suv oqib kelayotgan g’orga kirib, qariyb 2 km masofa ichkari yurib bordilar. Ularning aytishlariga qaraganda, g’or og’zida katta ko’l suvlari mavjud bo’lib, ichkariga qarab borgan sayin bu ko’llar o’rniga shiddat bilan g’uvullab oqayotgan suvga duch kelish mumkin. Yana shuni aytish lozimki, g’or tubi ko’rinmaydi, taxminan 10 km dan ortiqroq ichkariga darab cho’zilgan. Xo’jamayxona ota Payg’ambarimiz Muhammad s.a.v.ning amakivachchalari va kuyovlari bo’lmish hazrati Alining ajdodlaridan bo’lishi mumkinligi haqida fikrlar bor. Xo’jamayxona haqidagi tarixiy manbalar bizgacha yetib kelgan emas.



# "BOYSUN BAHORI"



#Sharqshunoslar  
Xo'jamayxonada



# "BOYSUN BAHORI"



#Sharqshunoslar  
Xo'jamayxonada



# "BOYSUN BAHORI"



#Sharqshunoslar  
Xo'jamayxonada



# "BOYSUN

## BAHORI"



#Sharqshunoslar  
ko'pkarida



Surxondaryo viloyati Boysun tumanida o'tkazilayotgan “**Boysun bahori**” xalqaro folklor festivali doirasida milliy qadriyatlarimizning bir bo'lagi, to'yu tantanalarimiz bezagi bo'lgan uloq-ko'pkari musobaqasi ham tashkil etildi.

Dashtig'oz qishlog'i hududidagi adirlikda bo'lib o'tgan shiddatli bellashuvda yurtimizning eng chapdast chavandozlari qatnashib, qiziqarli ko'ngilochar tomoshalarni tuhfa etdi. Kuchli, epchil, otlarining chopqirligi bilan chavandozlar muxlislariga o'zgacha zavq-u shavq ulashdi.



Adirlikda to'dadagi chavandoz-lar uloqni yerdan ko'tarib olib, tortishib, eng kuchlilari belgilangan marraga olib keldi. O'yinning halol o'tishini tajribali bakovullar kuzatib bordi.

Eng qadimiy va qiziqarli sport o'yinlarimizdan biri bo'lgan uloq-ko'pkari musobaqasiga sovrin sifatida qo'yilgan nor tuyalarni surxondaryolik chavandozlar, jumladan, sho'rchilik Odil chavandoz, bandixonlik Jumanazar chavandoz, termizlik Behzod chavandoz, qumqo'rg'onlik Husniddin chavandozlar qo'lga kiritdi. Shuningdek, chaqqon va epchil 22 chavandoz ot, ho'kiz, qo'y, sarka, televizor kabi zotlarga egalik qildi.

Uloq-ko'pkari musobaqasida mamlakatimizning turli hududlari-dan kelgan yuzdan ortiq chavandoz o'z mahorati, epchilligi, dovyurakligi va otlarining chopqirligini namoyish etdi.

# "BOYSUN BAHORI"




#Sharqshunoslar  
ko'pkarida



# "BOYSUN BAHORI"



#Sharqshunoslar  
Germaniyalik sayyohlar bilan



# FERUZA HOLIQOVA HUNARMANDCHILIK MARKAZI



Feruza Holiqova 1985-yil Boysun tu-mani Gaza mahallasida tug'ilgan. 22 yildan buyon kasanachilik bilan shug'ullanib keladi. Feruza opa 3-avlod bo'lib, hozirda o'zining barcha bilganlarini yosh avlodga o'rgatib kel-moqda, 30 dan ortiq o'quvchilari bor. Feruza opa bugunga qadar 100 dan ortiq eksponatlar jamlagan.



Turizm faoliyatini ham yo'lga qo'yan bo'lib, Qaraqalpoq Respublikasi, Shvetsariya, Rossiya kabi davlatlar bilan hamkorlik qilmoqda. Xorazm, Buxoro viloyatlari bilan ham hamkorlikni davom ettirmoqda. Gazalik Feruza Xoliqova ham 15 yoshidan momolari hamda onasidan kashtachilik sirlarini o'rganib, bugungi kunda o'zi yuzdan ziyod shogirdlarga ustozlik qiladi.



# FERUZA HOLIQOVA HUNARMANDCHILIK MARKAZIDAGI MILLIY KIYIMLAR



# PADANG QISHLOG'I DAM OLISH MASKANLARI

Padang - Boysun qishloq fuqarolari yig'ini hududidagi qishloq. Tuman markazidan 5 km, eng yaqin temir yo'l bekti Boysundan 15 km masofada. Aholisi asosan chorvachilik, lalmi dehqonchilik bilan shug'ullanadilar. Qishloqda umumiy o'rta ta'lim maktabi, savdo do'konlari, moy juvoz va tegirmon joylashgan.

Surxon vohasining Boysun tumani Padang qishlog'i o'z tabiatи va tarixiy joylari bilan mashhur. Bugungi kunga kelib, Padangga tashrif buyuruvchilarga dam olish maskani hostellar va o'tovlar qad rostlagan. O'tov ochiq maydonda gumbaz shaklida tiklanadigan ko'chma turar joy. O'tov nomi qadimgi turkiy tilda "olov yoq" ma'nosini anglatadi. O'tovlar milliylikdan kelib chiqib o'z hunarmandchilik buyumlari ya'ni kashtalar va sandal bilan bezatilgan va tashrif buyuruvchilarga qulay sharoitlar mavjud.



# “OMONXONA” MARKAZIY OSIYODAGI BALNEOLOGIK YAGONA DAVOLASH MASKANI

Mamlakatimizning tabiatи, tarixи, an'analari, madaniyati, arxitekturasi, ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlari tabiiy ravishda kishilarda, jumladan xorijiliklarda qiziqish uyg'otadi.

Osmono'par tog'lari, betakror xushmanzara tabiatи bilan ham dunyoga tanilayotgan Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi Inkobod mahallasida joylashgan omonxona qishlog'i go'zal tabiatи, hamda shifobaxsh suvi bilan xorijiy hamda mahalliy mehmonlarni doim o'ziga jalb qilib kelayotgan ana shunday go'zal maskanlardan biridir.

Uzoq yillik tarixga ega omonxona quyuq archazorlar bilan qoplangan. Ushbu manzil geografik muhiti, go'zal manzarasi, bahavoligi bilan inson ruhiyatiga o'zgacha ta'sir etadi. Omonxona buloq suvi tarkibida kremniy kislotasi, temir, alyuminiy va boshqa ko'plab mikroelementlar mavjudligi aniqlangan. Mutaxassislarning fikricha, bunday vitamin va minerallarga boy buloq suvi inson tanasini, ayniqsa, jigar, o't pufagi yo'llarini davolash xususi-yatiga ega. Ayniqsa, tananing ichki organlarini yuvishda omonxona buloq suvi foydali va zararsizdir.

Omonxona balneologik davlanish maskanidagi buloq suvi tarkibi va kishi organizmiga ta'sir etishi jihatidan Markaziy Osiyoda yagonadir. “Omonxona” balneologik davolash maskanida davolashning asosiy negizi ham ana shu sulfidli ma'danli suvni ichish va unda vanna qabul qilish hisoblanadi.



# JURNAL TAHRIRIYATI:



**XUSANOV CHORI  
QODIROVICH**

- Turizm amaliyoti rahbari;
- Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti, siyosati va turizm fakulteti dekanı

BOSH MUHARRIR



**SUYAROV KOMILJON  
SATTAROVICH**

- Yoshlar yetakchisi;
- Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti, siyosati va turizm fakulteti 4-bosqich talabasi

MUHARRIR



**ABDUG'AFFOROV  
SHAVKAT KOMILOVICH**

- Intellektual loyihalar koordinatori;
- Koreyashunoslik fakulteti 3-bosqich talabasi

DIZAYNER



**ABDUMAJITOV  
MUSLIMBEK  
MIRMAQSUD O'G'LΙ**

- TDSHU yoshlar ittifoqi jamoasi a'zosi;
- Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti, siyosati va turizm fakulteti 3-bosqich talabasi

DIZAYNER



**XABIBULLAYEVA  
SADOQAT BAXTIYOR QIZI**

- Talaba-qizlar koordinatori;
- Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti, siyosati va turizm fakulteti 4-bosqich talabasi

TAHRIRCHI



**SUYUNOV SALOHIDDIN  
BAHROM O'G'LΙ**

- TDSHU yoshlar ittifoqi jamoasi a'zosi;
- Sharq filologiyasi va tarjimashunoslik fakulteti 3-bosqich talabasi

DIZAYNER



**SABITOV MIRSHODEBK  
ISOQJON O'G'LΙ**

- Sharq sivilizatsiyasi va tarix fakulteti koordinatori;
- Sharq sivilizatsiyasi va tarix fakulteti 2-bosqich talabasi

TAHRIRCHI



**NAJMIDDINOVA NICINA  
UMIDJON QIZI**

- TDSHU yoshlar ittifoqi jamoasi a'zosi;
- Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti, siyosati va turizm fakulteti 4-bosqich talabasi

TAHRIRCHI



**USMONOV  
SHUKURILLO  
BAXODIROVICH**

- TDSHU yoshlar ittifoqi jamoasi a'zosi;
- Sharq mamlakatlari iqtisodiyoti, siyosati va turizm fakulteti 2-bosqich talabasi

TAHRIRCHI



**KOBILJONOV SANJARBEK  
DILMURODOVICH**

- TDSHU yoshlar ittifoqi jamoasi a'zosi;
- Xitoyshunoslik fakulteti 2-bosqich talabasi

TAHRIRCHI



SHARQSHUNOSLIK YOSHLARI ITTIFOQI



@TSUOS\_YU

# SHARQSHUNOSLIK YOSHLAR ITTIFOQI!



 tsuos.uz  
 INFO@TSUOS.UZ  
 t.me/tsuos

 +998 71 233 34 24  
 100060, Toshkent shahri,  
Amir Temur ko'chasi,  
20-uy



Toshkent davlat sharqshunoslik  
universiteti